

ZAMONAVIY TA'LIMDA IQTISOD FANLARINI O'QITISH SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI HAMDA O'QITISH USULLARI TAHLILI

Xolmirzayev Ozodbek Abdurasulovich

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Xolboboyev Asliddin G'ulom o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi Yangilanayotgan O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarni o'qitish yangi bosqichga ko'tarish, sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini oshirish, maktab o'quvchilarida iqtisodiy va tadbirkorlikka oid bilim ko'nikmalarini rivojlantirish, dars mashg'uloti davomida foydalaniladigan ta'lim metodlari, ta'lim sifatini oshirish yo'lida g'ijir - mulohazalar bildirilgan hamda tavsiyalar berilgan. Maqolada iqtisodiy fanlarni o'rganish zarurati va iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorligi haqida so'z boradi. Shuningdek, kadrlar tayyorlashning ilmiy-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotning real sektori talablari ta'sirida shakllangan zamonaviy usullari tavsiflangan.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim tizimi, innovatsion yondoshuv, sifat, sifatli ta'lim, innovatsion ta'lim metodlari (ekskursiya dars, kombinatsion dars, dars konferensiya), ta'lim texnologiyalari, ta'lim sifatini ta'minlash. iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy bilimlar, pedagogik texnologiyalar, amaliy ko'nikmalar, iqtisod fanlarini o'qitish, metodika, loyiha usuli, ishbilarmonlik o'yinlari.*

KIRISH

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy ta'lim zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi, talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun iqtisodiy bilimlarning ahamiyatini e'tirof etishni keng aks ettiradi. Iqtisodiy fanlarni o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan muayyan o'quv fanini o'qitishni nazarda tutuvchi fanni o'qitish metodikasi bilan belgilanadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida iqtisod fanlari sohasida metodologiyaning roli va ahamiyati muttasil ortib bormoqda. Iqtisodiy ta'lim ijtimoiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga javob beradi. Shuning uchun iqtisod va boshqa iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muammosi juda dolzarb bo'lib qoladi. Iqtisodiyot mohiyati jihatidan nima ishlab chiqarish, qanday va kim uchun savollarga javob beradi. Talabalar kelajakda qanday mutaxassis bo'lishlari, shu kasbga ega bo'lishlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Amalda ta'limning an'anaviy usullari bilan bir qatorda ma'ruza, seminar, talabalarning mustaqil ishi kabi noan'anaviy usullar ham keng qo'llaniladi. Ularning mohiyati o'quv jarayonini muloqot tarzida tashkil etishdan iborat bo'lib, bu o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etish, muammoli vaziyatlarni tahlil

qilish va mustaqil modellashtirish hamda ularni hal etishning samarali usullarini topishga yordam beradi. Bunday usullar ta'lim darajasini oshirishga, o'quvchilarni rivojlantirishga, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga imkon beradi. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida ijtimoiy sohalarning barqaror taraqqiyotini belgilashda ta'limni modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimida yangi innovatsion yondoshuvlar, samarali o'zgarishlar ro'y berayapti.

Asosiy qism: Mamlakatimizda iqtisodiy fanlarni o'qitish yangi bosqichga ko'tarilayapti. Sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini oshirish, maktab o'quvchilarida iqtisodiy va tadbirkorlikka oid bilim ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirda mamlakatda 210 ta oliygoh, 330 ta kasb maktabi, qariyb 400 ga yaqin kollej va texnikum hamda 10 mingdan ziyod umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmon ida "Inson kapitalining mehnat bozori va mamlakatda o'quvchilarning raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish" chora tadbirlarida muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa o'quvchilarning iqtisodiy bilim saviyasini oshirish, iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishni taqazo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" fanlarini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng maqbul yechim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilishga hamda o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyati va tushunchasining shakllanishi, evolutsiyasi, mohiyati va mazmunini, tadbirkorlikni tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida bilim berishdan iborat.

Ta'limga innovatsion yondashuv sharoitida iqtisodiy fanlarni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini

rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish mazkur fanlarning o'qitilish sifatini oshiradi. Bunda:

Xorijiy davlatlarning shaxsning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishga oid tajribasi, xususan, "Monopoliya", Pul oqimi" hamda "Iqtisodiy o'n ikkilik" o'yin tajribalarini qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Dars mashg'ulotlarida "Muammoli o'qitish", "Guruhiy qidiruv" va "Modulli ta'lim" kabi metodlarga asoslangan imitatsion xarakterdagi pedagogik ("Ishbilarmon", "Ishchanlik", "Krassvord", "Onagramma", "Rebus") o'yinlar tashkil etilishi o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy muammolarni rolli o'yinlar asosida mustaqil hal qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'yin jarayonida hal etiladigan vazifalar:

1) Iqtisodiy xarakterdagi topshiriqlar yordamida o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishga o'rgatish;

2) O'quvchilarda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish (yechimni topish) malakalarini rivojlantirish;

3) Amaliy topshiriqlar yordamida o'quvchilarda iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarini musaqil baholash qobiliyatini shakllantirish.

Iqtisodiy fanlar dars mashg'ulotlari innovatsion ta'lim metodlari (ekskursiya dars, kombinatsion dars, dars konferensiya) asosida tashkil etilishi orqali samaradorlikka erilishiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o'quvchilarning iqtisodiy munoabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon tashkiliy metodik jihatdan to'g'ri, samarali yo'lga qo'yilishi hamda ustuvor tamoyillarning tanlanishiga bog'liqdir. Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasining takomillashtirish, jumladan, dars mashg'ulotlarida muammoli topshiriqlar, o'quv loyihalari, amaliy va didaktik o'yinlarga ustuvorlik berish orqali o'quvchilarda iqtisodiy va tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar tavsiya etiladi:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish yaxlit tizimini ishlab chiqish, unda fanlararo aloqadorlik hamda

ta'lim tashkilotlari bilan ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida integratsiyani aks ettirishga erishish lozim.

2. "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" fani bo'yicha tashkil etiladigan darslarning interfaollik xarakterida bo'lishiga erishish, bunda asosiy e'tiborni umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish masalalarini rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiq.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida maktab pedagog xodimiga quyidagi tadbirkorlik talablari qo'yiladi: mas'uliyatni o'z bo'yniga olish va his etish; bozor qonun-qoidalarini, talablaridan kelib chiqqan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etish; taraqqiyot bilan barobar qadam tashlash; hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritish; mustaqil fikr yurita olish; maqsadni aniq qo'ya olish; ishbilarmonlik; ijodkor, yaratuvchi; talabchan va mehribon; vaqtning qadriga yetadigan; xushmuomala inson bo'lishi kerak.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsiya sifatida turli metodlardan foydalaniladi. Shunday usullardan biri loyiha usulidir. Innovatsion ta'lim loyihasi faoliyati - o'quvchilarning bilim qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini individual rivojlantirishga qaratilgan o'quv va o'quv jarayonini tashkil etishning samarali shakli. Bu usul turli ijodiy ishlarni taqdim etish texnologiyasini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Loyihalarni baholash mezonlariga quyidagilar kiradi:

- ishni loyihalashda qo'yiladigan talablarga muvofiqligi;

- mavzuni to'liq ochib berish;
- dastur doirasidan tashqari qo'shimcha foydalaniladigan ma'lumotlar miqdori;
- ish natijalarining yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati;
- foydalanilgan adabiyotlar hajmi;
- taqdim etish mantig'i, mulohaza yuritishning ishonarliligi, fikrlashning o'ziga xosligi, ishni tashkil etishning aniqligi;
- tadqiqot mazmuni va natijalarini ommaga taqdim etishning ochiqligi, izchilligi va erkinligi;
- berilayotgan savollarning mohiyatini tushunish, mulohaza yuritish, javoblarning ixchamligi va aniqligi

Xulosa: O'yin iqtisodiy nazariyani, iqtisodiy munosabatlarni amaliy rivojlantirish usulidir. O'yinlar yordamida siz iqtisodiyotda yuzaga keladigan real jarayonlarni simulyatsiya qilishingiz mumkin. O'quv o'yinlarining asosiy ustunligi - nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatidir. Ushbu usuldan foydalanganda o'quvchilarning samarali va o'zgartiruvchi faoliyati ustunlik qiladi. O'quv o'yinlari muammolarning muqobil va ko'p qirrali yechimlari bilan tavsiflanadi, ulardan eng oqilona yechimni tanlash kerak. Sinfdagi ishbilarmonlik o'yinlari hozirgi vaqtda ancha keng tarqalgan bo'lib, bozor sharoitida iqtisodiyot va boshqaruvning yangi shakllari bilan bog'liq bo'lgan mavzularni o'rganishda qo'llaniladi. O'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun bozor o'zgarishlarining qarama-qarshi jarayonlarini nazariy qoidalar asosida tahlil qilish uchun o'qitishning interfaol usullaridan: test topshiriqlaridan, aniq vaziyatlardan, iqtisodiy qonunlarni bilishdan maqsadli foydalanish talab etiladi.

Iqtisodiyotni o'qitishda yuqoridagi usullardan foydalanish o'qituvchining o'zi rolini biroz o'zgartiradi: u avtoritar va yagona bilim manbai bo'lishdan to'xtaydi va o'quv jarayonida o'quvchilarning yetakchisi va yordamchisiga aylanadi. Demak, iqtisodiyotni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quv fanlari imkoniyatlarini ko'rsatadi va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining zarur sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-2909-son (2017-yil 20-aprel) Qarori // lex.uz/docs/3171590.

2. Анацкая Л.Н. Современные технологии в преподавании экономики // Педагогическая наука и практика. 2018. №3 (21).

3. Бунтовская Л. Л., Дмитриева Ю. А. Инновационные технологии и современные методы обучения студентов экономических специальностей // Вестник Донецкого педагогического института. 2017. №1.

4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 -yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni//<https://lex.uz/docs/4312785>.

5. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - Toshkent, Iqtisod moliya, 2012.

6. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - Toshkent., "Vorish-Nashriyot"., 2006.

7. Raxmatullaeva D.R. Bo'lajak mutaxassislarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitish texnologiyasi. /«Zamonaviy ta'lim/ Sovremennoe obrazovanie», T., 2017, 1 -son. -70-74-b.